



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrasida dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrasida mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrasida mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

XALQ ME'MORCHILIK VA SHAHARSOZLIK SAN'ATI

Kariyeva Nazokat Jumanazarovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Arxitektura"

kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Xorazm vohasi qadimiy tsivilizatsiya markazlaridan biri bo'lib, uning me'morchilik va shaharsozlik merosi, ayniqsa, Xiva shahri va Ichan qal'a yodgorliklari, Sharq madaniyatining bebaho boyligidir. Ushbu me'moriy an'analar bugungi kunda ham milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Аннотация

Хорезмская оазис является одним из древнейших центров цивилизации, а её архитектурное и градостроительное наследие, особенно памятники Хивы и Ичан-калы, представляют собой бесценное достояние восточной культуры. Эти архитектурные традиции и сегодня играют важную роль в передаче национальных ценностей будущим поколениям.

Abstrakt

The Khorezm oasis is one of the ancient centers of civilization, with its architectural and urban heritage, especially the monuments of Khiva and Itchan-Kala, representing a priceless treasure of Eastern culture. These architectural traditions remain significant today in preserving and transmitting national values to future generations.

Kalit so'zlar

Xorazm, qadimiy tsivilizatsiya, me'morchilik, shaharsozlik, Xiva, Ichan qal'a, milliy meros.

Ключевые слова

Хорезм, древняя цивилизация, архитектура, градостроительство, Хива, Ичан-кала, национальное наследие.

Keywords

Khorezm, ancient civilization, architecture, urban planning, Khiva, Itchan-Kala, national heritage.

Kirish

Xorazm vohasining qadimiy fan va madaniyati, san'ati, me'morchiligi va uning natijasi bo'lgan qal'alar qurilishi kabilar o'zining jozibadorligi, ilmiy qonunlarga asoslanganligi bilan xarakterlidir. Xorazm jahon xalqlari tsivilizatsiyasiga qo'shgan muhim hissasi bilan alohida ko'zga tashlanadi.

Asosiy qism

Insoniyat jamiyat tarixida o'z faoliyatini boshlagandan buyon tabiat kuchlari ta'sirida bo'lib, ularni bartaraf qilish jarayonida o'z bilim va tajribalari ortib borgan.

O'z hayotida insonlar diqqati turar-joy binolari mustaxkamligi va jamoa bo'lib yashash, ya'ni shaharsozlik muammolariga qaratilgan. Chunki tabiiy agressiv ta'sirlarga mustahkamlikni oshirish va tashqi dushmanlarga jamoa bo'lib yashash orqali erishishga xarakat qilish qurilish usullarining takomillashishiga xamda shaharsozlik konunlarining shakllanishiga olib keldi.

Ma'lumki, diyorimiz o'zining o'ta darajada rivojlangan tsivilizatsiyasi bilan umuminsoniyat tarixida beqiyos o'rin tutadi. Bugungacha mutaxassislarning o'tmishdagi ota-bobolarimiz ilmiy merosini o'rganishlari, o'sha davrdagi me'morlarning amalda foydalangan qurilish usullarini, manbalarni o'rganish, me'moriy-tektonik tizimlarni tahlil qilish diyorimizda o'rta asrlarda me'moriy loyihalash fanining to'liq shakllanganligini ko'rsatdi.

O'tmish me'morchiligi umumiy matematika fanining bir qismi sifatida rivojlangan va geometrik shakllar va umuman me'moriy-qurilish g'oyalarini qurilish maydoniga tushirishga xizmat qilgan. Bunda tabiiyki me'morchilikning rivoji, unda qo'llaniladigan qonuniyat geometrik yasash usullari, ya'ni geometriya bilan chambarchas bog'liqdir.

O'tmishda arxitektura nazariyasi faqat bino va inshootlarni loyihalash bilan chegaralanib qolmagan. Bunda yuqorida aytilganlardan tashqari shaharsozlikning keng ko'lamli masalalari, zilzilabardoshlik va klimatologik masalalar, shahar va "iloxiy" joylarda qal'alarni qurish, massiv to'g'onlar qurilishi, ariqlar qazish kabi keng miqyosdagi masalalar bilan ham shug'ullanilgan.

Xalq me'morchiligi namunalarinig yaqqol namunasi sifatida Xivaning arxitektura yodgorliklari beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasining arxitektura yodgorliklari butun jahon madaniyati hazinasida haqli ravishda munosib o'rin egallagan bo'lib, ularni davlat bilan birga biz ham qadrlab muhofaza qilamiz. Xiva — 1983 yil YuNESKO tomonidan tarixiy-me'moriy muzey-shahar ya'ni, "Istoriko-arxitekturnyy muzey-zapovednik" deb e'lon qilingan va bu yerda mohir xalq ustalarining turli xil san'atini mujassam etgan SHarq shaharlaridan biri hisoblanadi.

Olimlarimiz qadimiy inshootlarni kelajak avlod va butun insoniyat uchun saqlab qolish maqsadida ularni tiklash va mustahkamlash ustida ish olib bormoqdalar. Ko'p millatli O'zbekiston xalqlarining tarixi va madaniyatini o'rganish, keng propaganda qilish va xalq ommasini madaniyat boyligidan bahramand etish hozirgi kunning vazifasidir, chunki kelajak avlod har tomonlama kamolotga yetgan bo'lishi kerak. Eng dadil orzu, mislsiz texnikaga ehtiros ham kishilikning ko'p asrli tajribasiga asoslanadi. Go'zallik va uygunlikni o'zida mujassamlantirgan arxitektura yodgorliklari asrlar osha davom etib kelayotgan xalq san'atkorlarining ijodiy izlanishi va yutuqlarini bizgacha yetkazib kelgan. O'tmish san'atining so'nmas go'zalligi saqlanishi kerak.

Hozirgi Xivaning bog' va gulzorlari o'rtasida ulkan Ichanqal'a qad ko'tarib turmoqda. Qal'a baland tepalikka joylashgan bo'lib, uning shimoldan janubga cho'zilgan to'g'ri to'rt burchakli sathli bir qancha burjlari bo'lgan qo'rg'on devor bilan o'ralgan Qal'aning to'rt tomonida darvoza bor. Bu mahobatli devor atrofida tinimsiz hayot qaynaydi. Bir vaqtlar feodal Xivaning raboti hisoblangan Dishanqal'a xududida hozir bog' va stadionlar, kolej va maktablar, muzey va teatrlar, qator zamonaviy uy-joylar qurilib, obod qilingan. Ichanqal'ada esa hayot o'rta asr davrida to'xtab qolgandek tuyuladi. Ichkariga kirishingiz bilan xonlik poytaxti bo'lgan Xivaning tosh yotqizilgan tor ko'chalarini ko'rasiz. Tevarak atrof saroylar, madrasa va minoralar, bunday ulkan muzey-shahar jahonda bitta, mamlakatimizda ham, chet elda ham bo'lmasa kerak.

Tarixiy ma'lumotlardan o'tgan davrda shahar hozirgi maydonining atigi to'rtidan bir (shimoldan janubga cho'zilgan) qismini tashkil etganligini bilamiz. Arxeologik tekshirishlar X —XI asrlarga oid madaniy qoldiqlar borligini ko'rsatdi. Bu asosda shahar paydo bo'lishi haqidagi afsonaga qandaydir haqiqat ham chulg'anib ketgandek tuyuladi. SHaharga Nux payg'ambarning o'gli Som asos solgan emish. Afsonada aytilishicha, Som qum tepaga yotib, tushida sir ko'ribdi emish. SHundan so'ng tevarak-atrofdan tuproq surib kelib shahar o'rnini belgilagan va Xeyvaq qudug'ini qazigan emish. SHunday qilib Xiva shahriga asos solingan ekan... Afsona, afsona bo'lib qolaveradi, lekin shahar qum ustiga qurilganligini arxeologik qazilmalar tasdiqlaydi. Eng qizig'i shundaki, X asrga oid madaniy qatlamlar — Xiva uchun eng qadimgi davrdan darak, beradi. Har holda Xiva, Xorazm iqtisodiy jihatdan rivoj topgan va birin-ketin yangi shaharlar qad ko'targan paytda paydo bo'lgan bo'lsa kerak. Masalan, 930 yilda faqat 13 ta shahar bo'lgan bo'lsa, 955 yilga kelib, 32 taga yetgan. Bu shaharlarning hammasi ham savdo karvoni yo'llari, ya'ni "Buyuk Ipak yo'li" yoqasiga joylashgan.

Xorazmning savdo aloqalari hunarmandchilikning tez rivojlanishiga imkoniyat tug'dirdi. Bizgacha yetib kelgan buyumlar ro'yhatida kamalak, qulf, turli mato, baliq kabi mollar bilan bir qatorda qullar ham zikr etiladi. SHaharning qulay geografik o'rni uning tez o'sishiga sabab bo'ldi. Xiva XIII —XIV asrlarda Xorazmning Xazorasp, Xonqa, Kat kabi shaharlari qatorida turadi.

SHahar arxitektura qurilishlari bilan boyib boradi, monumental inshootlar qad ko'taradi. Bulardan hozirgacha saqlanib kelgan Sayid Aloviddin maqbarasini (qayta qurilgan) ko'rsatib o'tamiz. O'sha davrning boshqa binolari haqida Ichanqal'aning turli joyida o'tkazilgan qazilmalarda topilgan turli bezak parchalariga qarab fikr yuritish mumkin. Xiva aholisining Xorazm poytaxti bo'lgan Gurganchning siyosiy va madaniy hayotida ishtirok etganligi haqidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir. Masalan, XIII asrda poytaxtning maxsus vakili SHahobiddin Xivaqiy juda katta kutubxona ochgan. Tarixchi Nasaviy bunday kutubxona «Na ilgari bo'lgan va na bundan keyin bo'ladi», — deb aytgan. Amudaryo oqimining o'ztarishi tufayli bir

necha marta suv bosib xarob bo'lgan Gurganj (Urganch) XIV asrga kelib, irrigatsiya tarmoqlarining buzilishi natijasida butunlay tashlandiq holga keldi. Xorazmning Vazir va Kat kabi shaharlari huvillab qoldi. Xuddi shu davrda Xivaning ahamiyati o'sib ketadi.

Xorazmning sug'oriladigan yerlari va Beshqal'a, Xazorasp bilan Xonqa(yangi yerga ko'chirilgan) va Yangi Urganch, Kat hamda SHohobod kabi shaharlari ham ahamiyatga ega bo'la boradi. Xiva Beshqal'aning tepasida turardi. Lekin shunga qaramay Xorazmdagi o'zaro urushlar va iqtisodiy tushkunlik shaharning ravnaq topishiga imkon bermasdi. Savdo aloqalari susaydi, savdo-sotiq, ham ancha pasayib, shahar hayoti va hunarmandchiligida ham tushkunlik yuz berdi. Sayyohlarning aytishicha, «Yurgan elida faqat to'rt shahar gavjum, boshqalari huvillab qolgan», faqat qullar savdosi qizigan edi. XVI —XVII asrlarda ham Xorazm qullar sotiladigan eng yirik bozor hisoblanardi.

Xiva savdogarlari tevarak-atrofdagi ko'chmanchilardan asirlarni xarid qilib, keyin Xiva qul bozoriga olib kelib, boshqa yurtlarga sotib yuborar edilar. Xiva, Buxoro va boshqa shaharlarning amaldorlari qullarni o'z yerlarida ishlatardilar. «Ularsiz (ya'ni qullar bo'lmasa) ish to'xtab qoladi-ku»...— deb Xivadagi rus elchilariga izoh berilgan. Qashshoqlik shu darajaga yetgan ediki, hatto xon ham elchilarini munosib kutib ololmas edi. Moskva elchisi I. Xoxlov o'z sharafiga xon Arab Muhammad bergan ziyofatni 1622 yilda shunday hikoya qiladi: «SHoh oldida bir tovoq go'shtlik ovqat, qimiz va bir tovoq palov bor edi». Elchilarga esa «bittadan kulcha non, bir kosadan qovun quyilgan edi, xolos». CHunki ro'za (xristianlar ro'zasi ko'zda tutiladi) tufayli elchilar uzr aytib, go'shtli ovqatdan voz kechganlar.

Asfandiyorxon (1623 — 1643) va Abulg'ozixon (1643 —1668) davrida Xiva Xorazmning poytaxti bo'lib qoladi. SHu davrdan boshlab Xorazm Xiva xonligi deb atala boshladi. Lekin bu umumiy ahvolni hech o'zgartmadi. Iqtisodiy krizis chuqurlashib borib, xon hazinasiga ham ta'sir etdi. Abulg'ozixon davrida ahvol shu chadar og'ir ediki, chet elliklar «Xivada ham aholi xonavayron bo'lgan, soliq to'lashga qurbi yetadigan odam yo'q» deganlar. Bu davrda hukmronlarning butun

fikri-zikri hayotda eng zarur bo'lgan irrigatsiya qurilmalari va mudofaa inshootlari qurishga qaratilgan edi. Xivada bu davrga oid monumental inshootlar ko'p emas: Arab Muhammad madrasasi (1616 yil), Abulg'ozixon o'g'li Anushaxonga qurdirgan madrasa va hammom (1657 yil) hamda Xurjun madrasasi (1688 yil). Abulg'ozixonning «SHajarai tarokima» va «SHajarai turk» nomli ikki tarixiy asari — o'sha davr Xiva madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Abulg'ozixon kitob muqaddimasida bunday deb yozgan edi: «Men shunday turkona yozdimki, uni besh yoshli bola ham tushunadi, ravon bo'lishi uchun chig'atoy-turk-arab va forsha birorta so'z ishlatmadim».

XVII asrdagi kabi XVIII asrning birinchi yarmida ham iqtisodiy va siyosiy tushkunlik davom etdi. Xonavayron qiluvchi hujumlar, o'zaro urush nizolar, Xiva xonligi uchun Buxoro bilan Eron o'rtasidagi urushlar mamlakat iqtisodiyotini zaiflashtirib yubordi. Xiva xonligi qisqa vaqt davomida Eronning chekka o'lkasi ham bo'lib turdi. Xiva vayron bo'lib, devorlari buzilib ketdi. XVIII asr tarixchisi Munis iborasi bilan aytganda, shahar «mazlumlar qalbi kabi pora-pora bo'lgan edi». Xivaliklar 1741 yilda ajnabiylarga qarshi bosh ko'tarib ularni quvib yubordilar. Lekin xonlikda tinchlik barqaror bo'lmadi. O'zaro taxt uchun kurash va o'zaro nizolar natijasida hokimlar tez-tez o'zgarib turardi. Xon hokimiyati e'tiborni yo'qotgan bo'lib, mamlakatni asosan qo'ng'iroq urug'idan chiqqan inoqlar boshqarar edi. To'polon, alg'ov-dalg'ov zamon qurilayotgan binolar qiyofasiga, umuman shahar ko'rinishiga o'z ta'sirini qoldirdi. SHahardan tashqaridagi xonadonlar bosqinchilardan saqlanish uchun qo'rg'on bilan o'rab olindi, burj va shinaklar qilindi. SHahar ichidagi har bir saroy, madrasa ham qal'a tusini olgan edi. Ish shu darajaga borib ediki, xonlar o'z saroylarida xotirjam emas edi. Masalan, SHerg'ozixon (1715 — 1728) qabul marosimini va ishlarini tugatgandan so'ng qamal vaqtida yashirinadigan burjga chiqib yotar edi. Oqshayxbobo tepaligi go'yo qo'rg'on ichidagi qo'rg'onni eslatadi. Bu — hukmronlarning mazlum xalqdangina emas, shu bilan bir qatorda hokimiyatni. qo'lga olib, xonni o'zgartirish payida bo'lgan o'zbek, qozoq,

qoraqalpoq, turkman qabilalari boshliqlaridan ham naqadar qo'rqanligining yorqin dalilidir.

Nihoyat, XIX asrning boshlariga kelib, qo'ng'irotlar sulolasiga asos solindi. Inoqlar davridayoq Xivaning xaroba devorlari tiklangan edi. SHahar ichida bir qancha binolar qurildi va ta'mirlandi.

XIX asrning birinchi yarmida binolar ayniqsa ko'p qurildi. Xon va uning amaldorlari, ruhoniylar Ichanqal'ada jadal qurilish ishlari olib bordilar. Fuqaro asta-sekin shaharlardan tashqariga surib chiqarildi. Madrasalar qurilishi ko'paydi.

Xalq san'atining eng yaxshi traditsiyalari Ichan-qal'aning XVIII —XIX asrlarga oid bir qancha yodgorliklarida aks etgan. Ichanqal'ada monumental binolar bilan bir qatorda o'ziga xos uy-joy va mahalla guzarlari, masjidlar, ularning o'ymakor eshik, ustun va panjaralari ham alohida diqqatga sazovor.

Xorazmliklar yuksak madaniyatining namunalari ana shu muzey shaharning uncha katta bo'lmagan sahnida joylashgan. Bu joyda biz xalq ustalari mahorati va didining mahsuli bo'lgan issiq sharoitga mos uy-joy qurish, XIX asr madrasasining qulay xususiyatlarini uqib olamiz. Ichanqal'a jozibadorligining sababi — undagi binolarning o'zaro monand va yagona uslub asosida bo'lganligidir. XVIII asr oxiri va XIX asrlar davomida keng ko'lamda ketma-ket olib borilgan qurilishlar tufayli shunga erishildi.

Yodgorliklarni alohida kuzatib, Xivaning o'ziga xos arxitekturasi bilan tanishaylik. Murakkab arxitektura komplekslarini yaratishda amalga oshirilgan xalq ustalarining asosiy tajribalari, qonun-qoidalari, tayin uslublari bilan tanishadigan bo'lsak, O'rta Osiyoning boshqa madaniy markazlaridan Xorazmning ajralib turgan bo'lishi va o'ziga xos iqlimi (sahroga yaqinligi) aholining joylashishiga, shaharlarning rivojlanishiga va uy-joylarning shakliga ta'sir etdi. Aholi sug'orish tarmoqlariga yaqin joyda yashagan. Daryo o'zanining o'zgarishi natijasida shaharlarning ko'chish voqeasi Xorazm tarixida ko'p uchraydi. Sug'oriladigan yerlardagi aholi suv boshini egallab olgan feodallarga qaram bo'lganlar.

Uy-joyning eng qadimgi va eng keng tarqalgan turi alohida-alohida joylashgan qo'rg'on hovlilardir. Qo'rg'on qishloq va ovuldan tamoman farq qiladi. Xorazm xududidagi to'xtovsiz davom etib turgan o'zaro urushlar qo'rg'on-hovlining devorlari mustahkam va xonalarining keng bo'lishini talab etardi. Qo'rg'on o'z oilaning butun ro'zg'ori, mollari, oziq-ovqat va suvlari saqlanardi. Qo'rg'on teshik-tuynuksiz paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, devorning burchaklari g'o'la shaklidagi burjlar bilan mahkamlangan edi. Qo'rg'on plani to'g'ri to'rt burchak shaklida bo'lib, asosan ko'pincha tashqi (dshan) va ichki (ichan) hovlilarga bo'linardi. Barcha xonalar yassi tom bilan yopilgan. Uzun yo'lak tepasidagi tuynuklar orqali yondosh xonalar ham yoritilgan. Bunday qo'rg'on qamal vaqtida 100 — 150 kishilik jamoani muhofaza etishi mumkin edi. Mustahkam qo'rg'onlar ko'plab qurilishi bilan bir qatorda (VI-IX asrlar) Xorazmda patriarhal - quldorchilik jamiyati tanazzulga yuz tutadi va feodal munosabatlar paydo bo'la boshlaydi, sekin-asta yirik feodallarning ko'shk-qo'rg'onlari atrofida qishloqlar vujudga kela boshladi.

Qo'rg'onlar paxsa devordan qurilib, doimiy yashash uchun mo'ljallangan bo'lsa, feodal ko'shki atrofidagi uylar cho'pkori oddiy binolar edi. Bunday imoratlarni tiklash va buzish juda oson. SHaharda joy tanqisligi uchun ixcham cho'pkori imoratlar ayniqsa qulaydir. CHo'pkori imoratlar keyinroq shaharga xos asosiy bino bo'lib qoldi. Afsuski cho'pkori imoratlar paxsa devorli imoratlar kabi uzoq saqlanmadi. SHu sababli ularni qurishning rivojlanishini o'rganib bo'lmadi. Uy-joy binosi tiplari O'rta Osiyo shaharlari keng rivojlangan davridayoq tarkib topgan va juz'iy o'zgarishlar bilan hozirgacha yetib kelgan.

Xiva uylarining o'ziga xos tuzilishi diqqatga sazovor. Binoning konstruktiv asosini bir qavat cho'pkori devor tashkil etib, sinchlar orasi xom g'isht bilan urilgan. Bu yerdagi yozgi va qishki xonalarining joylashuvi katta-kichikligi, bezaklari Buxoro, Samarqand va Farg'ona turar-joylaridan tamoman farq qiladi. Xiva turar-joylari tashqi ko'rinishi juda ajoyibdir: har bir uyda shimolga qaratib qurilgan ayvon bo'ladi.

Ichanqal'ada joy tanqisligi sababli Xiva hovlilarining fasadlari deyarli hammasi juda tordir. Ayvon hovli sahnini yuqoridan deyarli to'sib turadi va hovli ham qisman ayvoi vazifasini o'taydi. Hovlida shamol yaxshiroq yurishi uchun ayvonni baland qilib qurganlar. Bu esa shamolning pastdan yuqoriga almashib turishi va ichkarini nur bilan yoritilishiga yordam beradi. Ulug' yoki o'ng ayvon qarshisiga hovli sahniga chiqqan kichikroq ters ayvon bo'ladi. Salqin o'ng ayvon va unga yondosh bir yoki bir necha xonalar yozgi saroy hisoblanadi. Qishki xonalar va boshqa yordamchi binolar odatda hovlining g'arb va sharq tomonlariga qurilgan. O'ng va ters ayvonlar orasida hovli sahni pastroq va o'rtasida esa suv bo'ladi. Hovliga yon tomondagi kichik bostirmadan o'tiladi.

Shuni aytib o'tish lozimki, tasvirlangan Xiva uy-joy binosi atrof joyning shakli, katta-kichikligi, uy egasining imkoniyatiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Ko'pincha ayvon orqasidagi xona ikki qavatli bo'ladi. Yuqoridagi xona hovli tomonga ustunli ayvonchasi bilan hovliga qaratib qurilardi, yoki butunlay bekitib qaznoq qilinar edi. Ba'zan ayvonning tomi hovlining ustini ham yopib turardi. Yorug'lik esa past ters ayvon tepasidagi sinch devor tuynuklaridan tushadi. Hovlini shamollatish uchun qo'yilgan soyabonsimon bodgirlar Xiva uylariga ajib ko'rinish bag'ishlaydi. Bodgirlar tomning davomi sifatida qiyaroq joylashgan bo'ladi. Ikki qavatli imoratlarda esa bodgirlar uyning tomidan tekis baland ko'tariladi.

Xiva binolariga qarab unda yashovchi uy egasining kasbini bilib olish mumkin. Masalan, savdogarlarning uyida mol saqlanadigan ombor va tashqariga ochiladigan bir ustunli do'konlar bo'ladi. Hunarmandlarning uyida esa mehmonxona va ayvon ikkinchi qavatda bo'lardi. U shu yerdan turib kelayotgan xaridorlarni ko'rar va bahavo yerda qabul qilardi.

Xiva turar-joylari uchun xarakterli bo'lgan umumiylik shundan iboratki, binoning tuzilishi ham, bezagi ham juda sodda. Xona va ayvon devorlari bezaksiz somonli loy suvoqdan, uyning shipi toqi (vassa, patik) va yarim lo'la to'siqlardan iborat. Ganchdan ishlangan o'ymakor bezaklar uchraydi. Binodagi birdan-bir bezak

katta ayvonning o'ymakor yog'och ustunidir. Bundan tashqari o'ymakor eshiklar, panjaralar va ba'zi ko'tarma ravonlar ham xonadonga zeb-ziynat bag'ishlaydi.

Xiva turar-joy binolarining Samarqand va Buxorodagi kabi tashqariga qaragan yakka ustunli ayvonlari bilan bir qatorda hashamatli darvozaxonalari ham bor. O'ymakor darvoza tepasi naqsh berib ishlangan soyabon bilan yopilgan. Ba'zan ana shunday darvozaxona oldida bir qavat balandligidagi bir necha ustun ham bo'ladi. SHimolga qaragan baland ayvonlar shahar arxitekturasiga ajoyib husn berib turadi.

Mahalliy iqlim sharoitlarini hisobga olgan va oddiy hamda manzarali konstruksiyalarga asoslangan Xiva turar-joylarining progressiv tomonlari monumental arxitektura - xon saroylarida, guzar masjidleri, ustaxona, do'konlar qurilishida keng tadbiiq etildi.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, Xiva shahrida yangi-yangi binolar qurish va eskilarini yangilash davomida ustalar feodal qurilishidagi qarama-qarshiliklarni hal qila olmas edi. Xuddi ilk o'rta asr davridagidek ko'chalari tor, qing'ir-qiyshiq, tayin sxemani ko'rish mumkin emas. Uylar katta-kichik va tartibsiz joylashgan edi. Bo'sh joylari ko'proq bo'lgan Dishanqal'adagina ariqlar ko'p, ko'chalar ma'lum tartibga ega. Hovlilar bir oz keng va ko'kalamzor, turar-joylar ham yaxshi rejalashtirilgan.

Xulosa

Xorazm vohasi insoniyat tarixida qadimiy tsivilizatsiya markazlaridan biri bo'lib, me'morchilik va shaharsozlikning yuksak namunalari bilan mashhurdir. Qal'alar, to'g'onlar, sug'orish inshootlari va turar-joylar mahalliy ustalarning ilmiy va amaliy tajribasini namoyon etadi. Ayniqsa, «Xiva shahri» o'zining Ichanqal'asi, madrasa, masjid, minora va saroylari bilan Sharqning bebaho me'moriy merosidir. Uy-joylar konstruksiyasi iqlim sharoitiga moslashtirilgan bo'lib, paxsa devor, bodgir, shimolga qaratilgan ayvonlar va yog'och o'ymakorligi kabi an'anaviy usullar qo'llangan. Siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, xalq me'morchiligi va san'ati davom etib, bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan. Xorazmning boy madaniy merosi milliy an'ana va tarixiy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aripov, M.Q., Karimov, F.X. O'zbekiston me'morchilik tarixi.– Toshkent: O'qituvchi, 1997.
2. Asqarov, A. O'zbek xalqining kelib chiqishi va davlatchilik tarixi. – Toshkent: SHarq, 2007.
3. Davlatov, S. Xorazmda shaharsozlik va me'morchilik an'analari. – Urganch: Xorazm, 2015.
4. Saloxitdinov, A. Xiva – tarix va me'morchilik yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 1982.
5. Xorazm tarixi va madaniyati. To'plam. – Toshkent: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi nashriyoti, 2009.
6. UNESCO. The World Heritage List: Itchan Kala (Khiva, Uzbekistan). – Paris: UNESCO Publishing, 1983.
7. Jalilov, M. O'zbek me'morchiligi tarixi va uning rivojlanish bosqichlari. – T.: Universitet, 2010.
8. Xorazm arxeologiyasi va etnografiyasiga oid tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1991.

XVIII-XIX ASRLARGA OID QORAQALPOG'ISTONDAGI "ICHAN QAL'A" MAJMUASI ME'MORCHILIGI

Imamov Quralbay Turganbaevich (O'zbekiston)

Toshkent arxitektura qurilish universiteti, tayanch doktoranti (PhD).

Annotatsiya

XVIII-XIX asrlarga oid Qoraqalpog'istondagi "Ishon-qal'a" me'moriy yodgorligining hozirgi holati, uning tarix va me'morchilikdagi o'rni, tasavvuf bilan bog'liq jihatlari. Ishon-qal'a yodgorligining o'z davrida bajargan vazifalari va hozirgi holati bilan tanishish.

Abstract

The current state of the Ishon-Kala architectural monument in Karakalpakstan, dating back to the 18th-19th centuries, its place in history and architecture, and